Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

## LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети*

**Бобожонова Дилором Бобожонова**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети*

**Юнусова Хуршида Эркиновна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Аширов Адҳам Азимбаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Бурдиашвили Майя**
*тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети*

**Кожакеева Ляззат Темировна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети*

**Аминова Азиза Марксовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти*

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети*

**Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич**
*Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти*

**Ғоффоров Шокир Сафарович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети*

**Эргашева Юлдуз Алимовна**
*Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети*

**Халикова Раҳбар Эргашевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети*

**Ишанходжаева Замира Райимовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Эшов Боходир Жўраевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети*

**Маҳкамова Надира Рахмановна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети*

**Кебадзе Мадонна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети*

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти*

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси*

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети*

**Рашидов Ойбек Расулович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети*

**Ковалев Борис Николаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти*

**Кобзева Ольга Петровна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Ауанасова Алима Мусировна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти*

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**
*фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети*

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси*

**Алиева Лале**
*тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети*

**Саипова Камола Давляталиевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Исмаилова Алмаз**
*тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети*

**Иноятова Диларам Маниглиевна**
*Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети*

**Таниева Гулдона Мамановна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети*

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:


**Дорошенко Татьяна Ивановна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети*

**Ширванова Тарана Амирага кызы**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети*

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти*

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети*

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети*

**Хакимова Шоира Сағдуллаевна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали*

**Толибоева Нодира Одилжоновна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети*
***Масъул котиб***

**Теймураз Ахалмосулишвили**
*тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети*

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**
*тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси*

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети*

**Холмуродов Дилшод Рашидович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети*

**Юсупов Ахмеджон Шоназарович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti*

**Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети*

**Одилов Аброр Анварович**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети*
***Масъул котиб***

**Исоқов Бахтиёр Робиддинович**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети*

**Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети*

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети*

**Алимардонов Отабек Қудратович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети*

**Хасанова Нодира Ибрагимовна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти*

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Азаматова Гулмира Байирбековна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети*

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети*



Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Laziz Alimardonov**
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

**2. Doniyor Jumaniyozov**
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

**3. Nilufar Djurayeva**
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

**4. Baxtiyor Mirkomilov**
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

**5. Murod Raxmatov**
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

**6. Nilufar Raxmatova**
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

**7. Raxmatjon Saotboyev**
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

**8. Ikromjon Umarov**
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

**9. Ra’no Xatamova**
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

**10. Raxim Xudoyberdiyev**
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

**11. Муродилла Ҳайдаров**
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

**12. Озоджон Қувондиқов**
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

UDK:94(575.171):339“13/14”

**Doniyor Xudoyorovich Jumaniyozov,**
Urganch Innovatsion universiteti
Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Elektron pochta: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid : 0009-0009-8056-5047

# XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI

**For citation:** Doniyor Kh. Jumaniyozov. THE PLACE OF KHOREZM IN THE TRADE SYSTEM OF THE 14TH–15TH CENTURIES: CITIES, CARAVAN ROUTES, AND ANALYSIS OF NUMISMATIC SOURCES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674228**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada XIV–XV asrlarda Xorazm vohasining Oltin O‘rda (Jo‘ji ulusi), Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davlati bilan bog‘liq siyosiy-iqtisodiy jarayonlari hamda uning ichki va tashqi savdo munosabatlaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazmning Yevroosiyo savdo tizimidagi mavqeyi yozma, arxeologik va numizmatik manbalar asosida o‘rganiladi. Xususan, Gurganj (Urganch) shahrining iqtisodiy va hunarmandchilik markazi sifatidagi faoliyati, Oltin O‘rda davridagi pul muomalasi, Xorazm shaharlarining savdo infratuzilmasi hamda Ustyurt orqali o‘tgan karvon yo‘llarining mintaqalararo aloqalardagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Ibn Battuta ma’lumotlari, Oltin O‘rda va Temuriylar davriga oid tangalar hamda arxeologik materiallar asosida Xorazmning Volga bo‘yi, Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Eron va boshqa hududlar bilan iqtisodiy aloqalari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari Xorazmning XIV asrda Oltin O‘rda savdo-iqtisodiy tizimining muhim markazlaridan biri bo‘lganligini, keyingi siyosiy va harbiy jarayonlar esa vohaning savdo yo‘nalishlari hamda shaharlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, Oltin O‘rda, Jo‘ji ulusi, Chig‘atoy ulusi, Temuriylar, Gurganj, Urganch, Ibn Battuta, Qutlug‘ Temur, So‘filar sulolasi.

---

**Джуманиязов Дониёр Худоёрович,**
Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук и языков
Ургенчского инновационного университета
Эл. почта: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid: 0009-0009-8056-5047

# МЕСТО ХОРЕЗМА В ТОРГОВОЙ СИСТЕМЕ XIV–XV ВЕКОВ: ГОРОДА, КАРАВАННЫЕ ПУТИ И АНАЛИЗ НУМИЗМАТИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются политико-экономические процессы, связанные с Хорезмским оазисом в XIV–XV веках, а также его роль во внутренних и внешних торговых отношениях в период Золотой Орды (улуса Джучи), Чагатайского улуса и государства Тимуридов. Положение Хорезма в евразийской торговой системе рассматривается на основе письменных, археологических и нумизматических источников. Особое внимание уделяется деятельности города Гурганж (Ургенч) как крупного экономического и ремесленного центра, денежному обращению в период Золотой Орды, торговой инфраструктуре городов Хорезма, а также значению караванных путей, проходивших через Устюрт, в развитии межрегиональных связей. На основе сведений Ибн Баттуты, монет Золотой Орды и Тимуридского периода, а также археологических материалов освещаются экономические связи Хорезма с Поволжьем, Дешт-и Кыпчаком, Мавераннахром, Ираном и другими регионами.

Результаты исследования показывают, что в XIV веке Хорезм являлся одним из важных центров торгово-экономической системы Золотой Орды, тогда как последующие политические и военные процессы существенно повлияли на направления торговых связей и развитие городской системы оазиса.

**Ключевые слова:** Хорезм, Золотая Орда, улус Джучи, Чагатайский улус, Тимуриды, Гурганж, Ургенч, Ибн Баттута, Кутлуг-Темур, династия Суфи.

---

**Doniyor Kh. Jumaniyozov,**
Lecturer at the Department of Social Sciences,
Humanities and Languages,
Urgench Innovation University
Email: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid: 0009-0009-8056-5047

## THE PLACE OF KHOREZM IN THE TRADE SYSTEM OF THE 14TH–15TH CENTURIES: CITIES, CARAVAN ROUTES, AND ANALYSIS OF NUMISMATIC SOURCES

**ABSTRACT**

This article analyzes the political and economic processes associated with the Khorezm oasis in the 14th–15th centuries, as well as its role in internal and external trade relations during the periods of the Golden Horde (Jochi Ulus), the Chagatai Ulus, and the Timurid state. The position of Khorezm within the Eurasian trade system is examined on the basis of written, archaeological, and numismatic sources. Particular attention is paid to Gurganj (Urgench) as a major economic and craft center, monetary circulation during the Golden Horde period, the trade infrastructure of Khorezm's urban centers, and the significance of caravan routes crossing the Ustyurt Plateau for interregional contacts. Based on the accounts of Ibn Battuta, coins dating to the Golden Horde and Timurid periods, and archaeological evidence, the article examines Khorezm's economic relations with the Volga region, Dasht-i Qipchaq, Transoxiana, Iran, and other regions.

The findings demonstrate that in the 14th century Khorezm was one of the important centers of the Golden Horde's trade and economic system, while subsequent political and military developments significantly affected the direction of trade routes and the development of the oasis's urban network.

**Index Terms:** Khorezm, Golden Horde, Jochi Ulus, Chagatai Ulus, Timurids, Gurganj, Urgench, Ibn Battuta, Qutlug Timur, Sufi dynasty.

---

**Kirish (Introduction):**

XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi Markaziy Osiyoning siyosiy, ma’muriy va iqtisodiy tuzilishida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xorazmshohlar davlatining barham topishi natijasida Xorazm hududi yangi siyosiy-ma’muriy birliklar tarkibiga kiritilib, vohaning shimoliy qismi Jo‘ji

ulusi, janubiy va sharqiy hududlari esa Chig‘atoy ulusi ta’sir doirasida shakllandi [1]. Mazkur siyosiy bo‘linish keyingi davrlarda Xorazmning siyosiy taqdiri bilan bir qatorda uning savdo-iqtisodiy aloqalari va shaharlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida XIV asr oxiridagi Xorazmning siyosiy holati va Amir Temur yurishlari bilan bog‘liq voqealar batafsil yoritilgan [2].

Mo‘g‘ullar istilosining dastlabki davridagi vayronagarchiliklarga qaramay, XIV asrga kelib Xorazmning ayrim shaharlarida iqtisodiy hayot asta-sekin tiklana boshladi. Ayniqsa, Jo‘ji ulusi tarkibidagi Shimoliy Xorazm va uning markazi Gurganj (Urganch) Volga bo‘yi, Dashti Qipchoq, Movarounnahr va boshqa hududlarni bog‘lovchi savdo yo‘llari tizimida muhim mavqega ega bo‘ldi. Xorazmning geografik joylashuvi va Amudaryoning quyi oqimidagi strategik o‘rni uning karvon savdosi rivojida muhim omil bo‘lgan.

XIV asrda Oltin O‘rda hududida siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning nisbatan kuchayishi Volga bo‘yi, Dashti Qipchoq va Sharqiy Yevropa bilan bog‘langan savdo yo‘llarining faollashuviga sharoit yaratdi. Shu jarayonda Xorazm shaharlari ishlab chiqarish, hunarmandchilik, pul muomalasi va savdo operatsiyalarining muhim markazlari sifatida faoliyat yuritgan.

Xorazmning mazkur davrdagi savdo aloqalarini o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik va numizmatik materiallar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Gurganj, Xiva, Mizdahqon va boshqa shaharlardan topilgan tangalar Xorazmning turli siyosiy markazlar bilan iqtisodiy aloqalarini aniqlash imkonini beradi. Ibn Battutaning XIV asrning birinchi yarmida Xorazmga qilgan safari haqidagi ma’lumotlari esa Gurganjning shahar hayoti, bozorlari va iqtisodiy salohiyati to‘g‘risida muhim ma’lumot beradi [3].

Shundan kelib chiqib, maqolaning asosiy maqsadi XIV–XV asrlarda Xorazm vohasining Yevroosiyo savdo tizimidagi o‘rnini yozma, arxeologik va numizmatik manbalar asosida tahlil qilish hamda siyosiy o‘zgarishlarning shaharlar va savdo yo‘llari rivojiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili (Literature review):**

Tadqiqotda XIV–XV asrlarda Xorazmning savdo-iqtisodiy tarixini kompleks o‘rganish maqsadida tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tarixiy-geografik, arxeologik va numizmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali Xorazmning Oltin O‘rda, Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davridagi iqtisodiy-siyosiy holati o‘zaro taqqoslandi. Bu usul siyosiy o‘zgarishlarning savdo yo‘llari va shaharlar rivojiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Manbashunoslik tahlili asosida Ibn Battuta, Ibn al-Asir va Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflarning Xorazmga oid ma’lumotlari tahlil qilindi. Yozma manbalardagi ma’lumotlar arxeologik va numizmatik dalillar bilan qiyosiy o‘rganildi.

Arxeologik tahlil Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi va keyingi arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganilgan Shemaxaqal’a, Devkeskan, Yorbakirqal’a, Mizdahqon, Xiva va boshqa yodgorliklarga oid materiallarni qamrab oldi. Shahar xarobalari, ishlab chiqarish obyektlari, keramika materiallari, me’moriy qoldiqlar va karvonsaroylar savdo-iqtisodiy munosabatlarning moddiy dalillari sifatida ko‘rib chiqildi.

Numizmatik tahlil orqali Xorazm hududidan topilgan Oltin O‘rda va Temuriylar davri tangalarining tarkibi, zarb markazlari va xronologik xususiyatlari o‘rganildi. Bunda G.A. Fedorov-Davydov va M.M. Mambetullayevlarning tadqiqotlari muhim ilmiy manba sifatida foydalanildi [4; 5].

Tadqiqotning manbalar bazasini uch asosiy guruh tashkil etdi: yozma manbalar, arxeologik materiallar va numizmatik topilmalar. Mazkur manbalarni kompleks tahlil qilish Xorazmning savdo tarixini faqat siyosiy voqealar doirasida emas, balki shaharlar, ishlab chiqarish, pul muomalasi va transport-kommunikatsiya tizimi bilan uzviy bog‘liq holda yoritish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology):**

Mavzuni tadqiq etishda tarix fanining umumiy va maxsus ilmiy usullaridan foydalanilgan bo‘lib, ular XIV–XV asrlarda Xorazmning savdo tizimidagi o‘rnini ob’ektiv yoritishga xizmat qiladi. Xususan, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tizimli yondashuv kabi metodlardan, shuningdek,

numizmatik va manbashunoslik tahlili yozma manbalar hamda arxeologik-numizmatik topilmalarni qiyosiy o‘rganish hamda statistik tahlil qilishga asos bo‘ldi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results):**

Tadqiqot natijalari XIV asrda Xorazm vohasi, ayniqsa Gurganj shahri, Oltin O‘rda iqtisodiy tizimining muhim markazlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shahar o‘zining qulay geografik joylashuvi, rivojlangan hunarmandchiligi va savdo aloqalari bilan ajralib turgan.

XIV asrning birinchi yarmida Gurganj Xorazmning yirik shahar markazlaridan biri sifatida rivojlangan. O‘zbekxon davrida Xorazmni boshqarishda Qutlug‘ Temurning faol ishtiroki shahar iqtisodiy va siyosiy hayotining rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan. Ibn Battuta Gurganjni aholisi zich, bozorlari gavjum va me’moriy inshootlari rivojlangan yirik shahar sifatida tasvirlaydi [3]. Ibn Battutaning ma’lumotlari Gurganjda savdo va hunarmandchilikning yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Uning shahar haqidagi kuzatuvlari Xorazm markazining XIV asrda nafaqat mahalliy, balki uzoq masofali savdo aloqalarida ham faol ishtirok etganligini ko‘rsatuvchi muhim yozma dalildir.

Xorazmning XIV asrdagi iqtisodiy hayotini o‘rganishda numizmatik materiallar alohida o‘rin tutadi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazmda XIII asr oxiri – XIV asr davomida kumush va mis tangalar bilan bir qatorda ayrim davrlarda oltin tangalar ham muomalada bo‘lgan [4]. Urganch va Yorbakirqal’a yodgorliklaridan Jonibek, Berdibek va To‘xtamish nomlari bilan bog‘liq tangalarning aniqlanishi Xorazmning Oltin O‘rda pul-moliya tizimi bilan aloqadorligini ko‘rsatadi [4; 5]. Topilgan tangalarning katta qismi Oltin O‘rda hukmdorlari nomidan zarb qilinganligi Xorazmning mazkur siyosiy-iqtisodiy makon bilan faol aloqada bo‘lganini ko‘rsatuvchi muhim numizmatik dalildir [5].

Shu bilan birga, numizmatik materiallarni faqat siyosiy qaramlik belgisi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Tangalar muomalasi savdo aloqalari, pul tizimining integratsiyasi va turli hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mavjudligini ham aks ettiradi.

Xorazm shaharlarining iqtisodiy salohiyati hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik materiallar kulolchilik, metallga ishlov berish va boshqa hunarmandchilik turlarining rivojlanganini ko‘rsatadi.

Xorazmlik hunarmandlarning Oltin O‘rda hududidagi shaharlar, jumladan Saroy Botu, Saroy Berka, Majar va Hojitarxon kabi markazlarning madaniy-iqtisodiy hayotida ishtirok etganligi haqida ilmiy adabiyotlarda ma’lumotlar mavjud [6]. Bu holat Xorazm va Oltin O‘rda hududlari o‘rtasidagi aloqalar faqat tovar ayirboshlash bilan chegaralanmaganini, balki hunarmandchilik tajribasi va texnologik an’analarning almashinuvi ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Xorazmning savdo aloqalari geografik jihatdan keng qamrovli bo‘lgan. Yozma va arxeologik manbalar vohaning Hindiston, Xitoy, Eron, Movarounnahr, Volga bo‘yi va Dashti Qipchoq hududlari bilan turli shakldagi iqtisodiy aloqalarda bo‘lganligini ko‘rsatadi [3; 6].

Xorazmdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, mashhur qovun mahsulotlarining uzoq hududlarga chiqarilgani qayd etiladi. Shu bilan birga, Xorazm shaharlarida Eron va Sharqiy Osiyo hududlaridan kelgan ayrim kulolchilik mahsulotlarining uchrashi tashqi savdo aloqalarining moddiy izlaridan biri sifatida baholanishi mumkin [3].Savdo aloqalarining barqaror ishlashida karvonsaroylar muhim infratuzilmaviy ahamiyat kasb etgan. Ustyurt hududidagi Doyaxotin, Belovli, Qoraumbat, Qulonli, Meshekli va Oqqal’a kabi karvonsaroylar Xorazmni shimoliy va g‘arbiy yo‘nalishlar bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari tizimining muhim elementlari bo‘lgan [7].

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida Xorazmning siyosiy holatida yuz bergan o‘zgarishlar vohaning iqtisodiy hayoti va savdo yo‘llariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu jarayonlarni uch asosiy bosqichda ko‘rib chiqish mumkin.

XIV asrning ikkinchi yarmida Oltin O‘rdadagi siyosiy parokandalik Xorazmning siyosiy maqomiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Qo‘ng‘irot urug‘iga mansub So‘filar sulolasi vakillari, xususan Husayn So‘fi va uning vorislari, Xorazmda mustaqil siyosiy siyosat yuritishga intildilar.

Mazkur davrda Xorazmning siyosiy mustaqillikka intilishi uning pul muomalasida ham ma’lum darajada aks etgan. Mahalliy tangalar va anonim zarblar bilan bir qatorda To‘xtamish

nomidan chiqarilgan tangalarning muomalada bo‘lishi Xorazmning turli siyosiy-iqtisodiy markazlar bilan aloqalari murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lganligini ko‘rsatadi [8].

Xorazmning siyosiy tarixidagi eng muhim burilishlardan biri Amir Temurning vohaga qilgan harbiy yurishlari bilan bog‘liq. Amir Temur Xorazmni o‘zining Movarounnahrdagi siyosiy hukmronligi doirasida ko‘rgan va XIV asrning 70–80-yillarida vohaga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirgan [9]. 1372–1388-yillar oralig‘idagi harbiy to‘qnashuvlar Xorazm shaharlarining siyosiy va iqtisodiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Urganchning vayron qilinishi va aholining boshqa hududlarga ko‘chirilishi vohaning iqtisodiy hayotida sezilarli uzilishlarni yuzaga keltirdi

Shu bilan birga, ushbu jarayonni “Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i butunlay to‘xtadi” tarzida baholash ilmiy jihatdan haddan tashqari qat’iy bo‘ladi. To‘g‘rirog‘i, XIV asr oxiridagi siyosiy beqarorlik Oltin O‘rda hududi orqali o‘tuvchi ayrim savdo yo‘nalishlarining xavfsizligi va barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, savdo oqimlarining boshqa yo‘nalishlarga qayta taqsimlanishiga sharoit yaratgan

Natijada Movarounnahrning Samarqand va Buxoro, shuningdek, Xurosonning Hirot kabi markazlari orqali o‘tuvchi savdo yo‘llarining nisbiy ahamiyati oshgan. Bu holat Xorazmning mintaqalararo savdo tizimidagi o‘rnining vaqtinchalik qayta shakllanishiga olib kelgan [9]. Temuriylar davrida Xorazm shaharlarining iqtisodiy hayoti to‘liq barham topmagan. Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaxaqal’a), Adoq va Xiva kabi markazlarda shahar hayoti va xo‘jalik faoliyatining davom etganini arxeologik materiallar ko‘rsatadi [10].

Biroq XV asrda siyosiy beqarorlik bilan bir qatorda tabiiy-geografik omillar ham Xorazm shaharlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Amudaryo o‘zanlarining o‘zgarishi, suv tarmoqlarining siljishi va sug‘orish tizimlaridagi o‘zgarishlar ayrim shaharlarning iqtisodiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Devkeskan, Shohsanam va Qalaliq kabi yodgorliklarning keyingi taqdiri ushbu jarayonlar bilan bog‘liq holda baholanadi [5].

Shuningdek, XIV–XV asrlardagi siyosiy-harbiy to‘qnashuvlar ham savdo yo‘llarining barqaror faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Yedigey yurishlari, Shoh Malik boshchiligidagi harbiy harakatlar hamda Temuriylar va Dashti Qipchoqdagi ko‘chmanchi siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kurashlar Xorazmning ayrim hududlarida iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirgan [9]. Shunday qilib, XIV–XV asrlarda Xorazmning savdo-iqtisodiy taraqqiyoti faqat siyosiy omillar bilan emas, balki tabiiy-geografik sharoit, Amudaryo gidrografiyasi, shaharlar joylashuvi va karvon yo‘llari infratuzilmasining holati bilan ham belgilanib turgan.

**Xulosa (Conclusion):**

XIV–XV asrlarda Xorazm vohasi mintaqalararo savdo aloqalarida muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, XIV asrning birinchi yarmida Gurganj (Urganch) yirik savdo, hunarmandchilik va iqtisodiy markaz sifatida rivojlangan. Shaharning qulay geografik joylashuvi Xorazmni Volga bo‘yi, Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Eron va boshqa hududlar bilan bog‘lovchi savdo yo‘llarining faol ishtirokchisiga aylantirgan.

Arxeologik va numizmatik ma’lumotlar Xorazmda savdo va pul muomalasi rivojlanganini ko‘rsatadi. Oltin O‘rda hukmdorlari nomidan zarb qilingan tangalarning Xorazm hududidan topilishi vohaning mazkur davlatning iqtisodiy makoni bilan faol aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Xorazm hunarmandlarining boshqa hududlardagi faoliyati esa savdo bilan birga hunarmandchilik tajribasi va madaniy aloqalar ham rivojlanganini ko‘rsatadi.

Ustyurt orqali o‘tgan karvon yo‘llari va karvonsaroylar Xorazmning shimoliy va g‘arbiy hududlar bilan savdo aloqalarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xorazmning Hindiston, Xitoy, Eron va Movarounnahr bilan aloqalari esa uning savdo geografiyasi keng bo‘lganini ko‘rsatadi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy beqarorlik, So‘filar sulolasining mustaqillikka intilishi va Amir Temurning Xorazmga yurishlari savdo yo‘llari hamda shaharlar rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Natijada ayrim savdo yo‘nalishlari zaiflashib, savdo oqimlarining boshqa hududlarga yo‘nalishi kuchaydi. XV asrda siyosiy-harbiy jarayonlar bilan bir qatorda Amudaryo o‘zanlarining o‘zgarishi va sug‘orish tizimidagi jarayonlar ham ayrim shaharlarning rivojlanishiga

salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, Xiva, Vazir, Tirsak va boshqa shaharlarda iqtisodiy va xo‘jalik faoliyati davom etdi.

Umuman, XIV–XV asrlarda Xorazmning savdo tizimidagi o‘rni doimiy bo‘lmagan. Uning iqtisodiy ahamiyati siyosiy vaziyat, shaharlarning rivojlanishi, savdo yo‘llari, pul muomalasi va tabiiy-geografik sharoitga qarab o‘zgarib turgan. Xorazm bu davrda savdo yo‘llari kesishgan, turli hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni ta’minlagan muhim mintaqaviy markazlardan biri bo‘lib qolgan.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Oltin O‘rda va uning qulashi. – Toshkent: Fan, 1956. – 472 b. (Grekov, B. D., & Yakubovsky, A. Y. (1956). The Golden Horde and its collapse. Tashkent: Fan, 472 p.)

2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. / Nashrga tayyorlovchilar: A. Ahmedov, H. Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b. (Sharaf al-Din Ali Yazdi. (1997). Zafarnoma [Book of Conquest]. Prepared for publication by A. Akhmedov and H. Bobobekov. Tashkent: Sharq, 384 p.)

3. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. – Toshkent: Sharq bayozi, 1993. – 128 b. (Ibrokhimov, N. (1993). Ibn Battuta and his journey to Central Asia. Tashkent: Sharq Bayozi, 128 p.)

4. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Материалы и исследования по археологии СССР. – М., 1965. – № 126. – С. 195–223. (Fedorov-Davydov, G. A. (1965). Numismatics of Khorezm of the Golden Horde period. Materials and Researches on the Archaeology of the USSR, (126), pp. 195–223. Moscow.)

5. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958–1961 гг. (МХЭ. Т. 7). – М., 1963. – С. 41–53. (Vakturskaya, N. N. (1963). On the medieval cities of Khorezm. Field Research of the Khorezm Expedition in 1958–1961 (Transactions of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition, Vol. 7). Moscow, pp. 41–53.)

6. Кдырниязов М.Ш. Культурные связи городов Южного Приаралья в XIII–XIV вв. – Нукус: Каракалпакстан, 1991. – 160 с. (Kdyrniyazov, M. Sh. (1991). Cultural ties of the cities of the Southern Aral Sea region in the 13th–14th centuries. Nukus: Karakalpakstan, 160 p.)

7. Маны́лов Ю.П. Первые итоги изучения караван-сараев Устюрта // Советская археология. – М., 1983. – № 3. – С. 52–58. (Manylov, Y. P. (1983). The first results of studying the caravanserais of Ustyurt. Soviet Archaeology, (3), pp. 52–58. Moscow.)

8. Мамбетов М., Ходжаниязов Г. Кивинский клад // Вестник КК ОАН РУз. – Нукус, 2003. – № 5. – С. 68–70. (Mambetov, M., & Khodzhaniyazov, G. (2003). The Kivin hoard. Bulletin of the Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, (5), pp. 68–70. Nukus.)

9. Masharipov Q. Xorazmning O‘rta Sharq va Yevropa davlatlari savdo markazlari bilan tarixiy aloqalari (X–XV asrlar). – Urganch: Xorazm, 2004. – 148 b. (Masharipov, Q. (2004). Historical relations of Khorezm with the trade centers of the Middle East and European countries (10th–15th centuries). Urgench: Khorezm, 148 p.)

10. G‘ulomov Ya.G‘. Qadimgi Xorazmning sug‘orilish tarixi. – Toshkent: Fan, 1957. – 324 b. (Gulyamov, Y. G. (1957). History of the irrigation of ancient Khorezm. Tashkent: Fan, 324 p.)

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

## LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000